

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyevena</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
<b>Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
<b>Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi</b>	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
<b>Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura</b>	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
<b>Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
<b>Yusupov Farhod Adamboyevich</b>	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
<b>Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich</b>	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
<b>Ashurova Shaxnoza Almasovna</b>	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
<b>Meliboyev Askar Eshmuratovich</b>	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
<b>Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
<b>Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи</b>	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
<b>Мирджуроев Сарвар Алишер угли</b>	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
<b>Isoqov Zafarjon Zokirjonovich</b>	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI .....	250
<b>O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО .....	259
<b>Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
<b>Давронов Олимбек, Туляганов Азиз</b>	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	271
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
<b>Azimova Maxfuza Rashidovna</b>	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI .....	284
<b>Xolov Xamza Tojiddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH .....	292
<b>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna</b>	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
<b>Ochilova Intizor Sadikovna</b>	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
<b>Sindarov Fazliddin Kaxramonovich</b>	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
<b>Odilova Malika Abdushukur qizi</b>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH .....	317
<b>Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich</b>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	321
<b>Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
<b>Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI.....	332
<b>Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich</b>	
USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN.....	340
<b>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</b>	
BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI.....	347
<b>Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	353
<b>Meyliyeva Shoxista Rustamovna</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	358
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ .....	363
<b>Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich</b>	
HUUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH.....	371
<b>Kosimov Bobir Abdigafarovich</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	376
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	383
<b>Мурадов Алишер Курбанбаевич</b>	
ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПАРАДИГМЫ АГРОТУРИЗМА КАК УСЛОВИЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	390
<b>Усманова Диляфруз Каршиевна</b>	
WAYS TO IMPROVE THE REGIONAL STRUCTURE OF THE INDUSTRY OF NAVAI REGION .....	396
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG'INI TAKOMILLASHTIRISHDA SAMARALI XORIJIY TAJRIBA .....	400
<b>Safarova Shahzoda</b>	
НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА.....	405
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILMiy-AMALIY MASALALARI.....	410
<b>Djuraeva Guzal Shavkatovna</b>	



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	414
<b>Xalikulova Shirin Utkir qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	418
<b>Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СЛОВАРЯ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	425
<b>Рихсибоева Нигора Низомиддин кизи, Тоймухамедова Дилобар Хуснитдиновна</b>	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	434
<b>Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li</b>	
KAM SUV TALABCHAN SEMENT OLIISH UCHUN RATSIONAL TARKIBNI TADQIQ QILISH.....	440
<b>X.V. Yusupov, Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li</b>	
ENHANCING THE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN EMERGING ECONOMIES: EVIDENCE FROM MURABAHA-BASED INSTRUMENTS AND PUBLIC-PRIVATE INVESTMENT MODELS.....	445
<b>Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li</b>	
TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	453
<b>Ibragimov Husen Ismailovich</b>	
STUDIES ON OBTAINING AZOSUPERPHOSPHATE BY TREATING HIGH-CARBONATE, LOW-GRADE CENTRAL KYZYLKUM PHOSPHORITES WITH VARIOUS DOSAGES OF AMMONIUM SULFATE AND SULFURIC ACID.....	457
<b>Saidov Hakimboy O'rinboyevich</b>	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQARISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	463
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
NAVOIY VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINI BANDLIK VA INVESTITSIYA OQIMLARI ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	466
<b>Baqoyev Husan Nuriddinovich</b>	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	474
<b>Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li</b>	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI VA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
<b>Rustamov Umidjon Xayitboyevich</b>	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	485
<b>O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich</b>	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI.....	494
<b>Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li, Saydullayeva Dilnoza Komil qizi</b>	
BENTONIT YORDAMIDA ISHLATILGAN TURBINA MOYLARINI TOZALASH ASOSIDA BAZAVIY MOY OLIISH IMKONIYATLARI.....	502
<b>Salomatov Behruz To'ymurodovich, Panoyev Nodir Shavkatovich, Safarov Jasur Alijon o'g'li</b>	
INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH VA KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGI.....	506
<b>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</b>	



CHEMICAL-MINERALOGICAL CHARACTERIZATION AND DRY BENEFICIATION TECHNOLOGY OF FELDSPAR FROM THE SULTAN UVAYS DEPOSIT .....	512
<b>Buranova Dinara Baxtiyarovna</b>	
TRANSPORT LOGISTIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHISH JARAYONIDAGI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	520
<b>Jabborov Islom Xusan o'g'li</b>	
MAGNIT O'ZAGI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORLARDA MEKANIK ZO'RIQISH VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH HAMDA TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA ELLIPS KESIMNING OPTIMAL PARAMETRLARINI TANLASH.....	524
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ОТ ДЕКЛАРАЦИЙ К ДЕЙСТВИЮ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ БАРЬЕРЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	531
<b>Салахутдинова Юлдуз Голибовна</b>	
ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI ISHINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI BASHORAT QILISH VA YAXSHILASH.....	536
<b>Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjon o'g'li, Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI QAYTARISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN RISKGA ASOSLANGAN MODEL .....	542
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich, Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AGROFOTOVOLTAIKA: ILMIY-AMALIY RIVOJLANISH, PILOT LOYIHALAR VALIDATSIYASI VA ME'YORIY-HUQUQIY ISTIQBOLLAR .....	552
<b>Shog'o'chqorov Sanjar Qodir o'g'li</b>	
MINTAQAVIY INFRATUZILMANING IJTIMOYIY TABAQALASHUVGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	563
<b>Babjanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA KLASTERLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI .....	568
<b>Xusanova Malohat Mingnorovna</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФИНАНСОВОМ УЧЁТЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОПЕРЕРАБОТКИ.....	574
<b>Икрамова Хилола Ровшан кизи</b>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	583
<b>Nurova Farog'at Salohiddin qizi</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	590
<b>Fayzullayev Nurulla Baxromovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA YASHIL DEPOZITLAR VA YASHIL KREDITLAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI .	596
<b>Berdiyev Akram O'ktamovich</b>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	601
<b>Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi</b>	
DAVLATNING IJTIMOYIY SOHA MUASSASALARI MOLIVAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH .....	608
<b>Hasanov To'liqin Axmatovich</b>	

# DAVLATNING IJTIMOY SOHA MUASSASALARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH



## Hasanov To'liqin Axmatovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada davlatning ijtimoiy soha muassasalari moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligining hozirgi holati tahlil qilingan, mavjud muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ilmiy yangiliklarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat budjeti, ijtimoiy soha, ta'lim muassasalari, moliyaviy resurslar, budgetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi, maktab quvvati, yagona ijtimoiy soliq, ota-onalar to'lovi, pedagog xodimlar, moddiy rag'batlantirish, tijorat banklari va to'lov tashkilotlarining vositachilik yig'implari

**Аннотация.** В статье проанализировано текущее состояние эффективности управления финансовыми ресурсами учреждений социальной сферы государства, выявлены существующие проблемы, а также разработаны предложения и рекомендации по их устранению. Также освещены научные новшества, внедрённые в практику.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, социальная сфера, образовательные учреждения, финансовые ресурсы, внебюджетный фонд развития, мощность школы, единый социальный налог, родительская плата, педагогические работники, материальное стимулирование, посреднические сборы коммерческих банков и платёжных организаций

**Abstract.** The article analyzes the current state of efficiency in managing financial resources of public sector institutions in the social sphere, identifies existing problems, and develops proposals and recommendations for their elimination. It also highlights scientific innovations implemented in practice.

**Keywords:** state budget, social sector, educational institutions, financial resources, extra-budgetary development fund, school capacity, unified social tax, parental fees, teaching staff, financial incentives, intermediary fees of commercial banks and payment organizations

## KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan strategik investitsiya sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda ta'limga ajratilayotgan moliyaviy resurslar hajmining ortib borishi ularning samaradorligini oshirish, adolatli taqsimlash va maqsadli yo'naltirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda "moliya – adolat – samaradorlik" muvozanatini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar tobora takomillashib, ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro donorlar tomonidan ta'limga ajratilayotgan mablag'lar ulushidagi o'zgarishlar global ta'lim tizimida resurslarni yanada samarali boshqarish va yangi moliyalashtirish mexanizmlarini izlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Moliyalashtirish hajmining ortib borishi ta'lim sifatini oshirish hamda har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlarni optimallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada, ayniqsa kam daromadli mamlakatlarda ta'lim sifati va resurslar taqsimotini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi oldiga raqobatbardosh inson



kapitalini shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda, bu esa inklyuziv ta'lim, raqamli o'quv muhiti va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish orqali amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi hamda teng imkoniyatlarni ta'minlash muhim omillar sifatida tobora mustahkamlanib bormogda.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimini rivojlantirish va uni samarali moliyalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmogda. Ushbu sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim sifati va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmogda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida o'z ahamiyatini yanada kuchaytirmogda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Demografik iqtisodiyotning dastlabki nazariyalarida aholi sonining o'sishi va cheklangan resurslar o'rtasidagi nomutanosiblik asosiy muammo sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda e'tibor aholi tarkibi va yosh tuzilmasiga qaratildi. Xususan, Ansley J. Coale va Edgar M. Hoover tadqiqotlarida aholi yosh tarkibi, ayniqsa maktab yoshidagi bolalar ulushi davlat xarajatlari hamda ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini belgilovchi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Ushbu yondashuv demografik prognozlar asosida ta'lim tizimini rejalashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Xalqaro normalarda rag'batlantiruvchi soliq siyosati nazariyasiga ko'ra, soliq imtiyozlari va past stavkalar orqali ta'lim va malaka oshirishga investitsiyalarni rag'batlantirish mumkin. Xalqaro tajriba, xususan rivojlangan mamlakatlar amaliyoti, ta'limga yo'naltirilgan xarajatlarni soliq bazasidan chiqarish hamda soliq kreditlari berish orqali inson kapitaliga sarmoyalarni qo'llab-quvvatlash samarali ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv davlat uchun ta'lim investitsiyalarining ijtimoiy qaytimi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Xorijiy olimlarning tranzaksiyon xarajatlar nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarda to'g'ridan-to'g'ri xarajatlardan tashqari, axborot izlash, muzokara olib borish va nazorat bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar ham mavjud. Ta'lim tizimida, xususan to'lov xizmatlarida vositachilik haqlari aynan ushbu xarajatlarning institutsional ko'rinishi hisoblanadi. Bu esa moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda muhim omil sifatida qaraladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan inson kapitali nazariyasiga muvofiq, ta'lim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, maktabdan tashqari ta'lim va qo'shimcha dasturlar inson kapitalining sifati va qamrov ko'rsatkichlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda mehnat iqtisodiyoti yondashuvi asosida yuqori malakali pedagog kadrlarni jalb etish va ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini moliyalashtirishni tahlil qilishda tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali sohadagi mavjud holat, muammolar va rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Empirik baza sifatida rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda vakolatli davlat organlari hisobotlari, jumladan, tegishli vazirlik va idoralarning ma'lumotlari, shuningdek ochiq axborot manbalari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalarga asoslanganligi hamda ularning o'zaro qiyosiy tahlil orqali tekshirilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish va amaliy qarorlar qabul qilishda foydalanishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ijtimoiy soha xarajatlariga ajratilgan mablag'lar eng katta ulushga ega hisoblanadi. Ijtimoiy soha muassasalariga ajratilayotgan xarajatlar 2020-2024-yillar kesimida har bir yo'nalish bo'yicha tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval****Davlat budjetidan ijtimoiy soha xarajatlariga ajratilgan mablag'larning o'zgarish dinamikasi (mlrd so'm hisobida)**

Ko'rsatkichlar		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Davlat budjeti xarajatlari jami		144 143	188 257	236 692	281 097	310 926
1.	Ijtimoiy xarajatlar	74 232	92 014	117 692	137 247	152 348
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	63 177	80 672	105 589	122 349	134 667
	shundan:					
1.1.1	Ta'lim	29 961	39 641	50 271	61 220	71 743
a.	Maktabgacha ta'lim	4 896	7 985	10 152	11 723	12 147
b.	Umumiy ta'lim	21 860	27 248	33 138	39 683	49 232
v.	Kadrlar tayyorlash	3 205	4 408	6 981	9 815	10 364
1.1.2	Sog'liqni saqlash	19 397	23 317	27 288	31 067	33 562
1.1.3	Madaniyat va sport	2 341	3 610	4 290	5 330	6 052
1.1.4	Fan	824	1 081	1 447	1 774	2 011
1.1.5	Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	8 191	10 880	19 397	19 210	19 258
1.1.6	Aholi bandligi darajasini oshirish	1 305	800	707	1 709	2 041
1.2.	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	9 117	10 744	11 092	13 798	16 271
1.3.	Uy-joy qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari, subsidiyalar va kompensatsiya to'lovlari	1 938	598	1 011	1 101	1 410

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida davlat budjeti xarajatlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 144 143 mlrd so'mdan 310 926 mlrd so'mgacha oshgan. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlar hajmi ham sezilarli ravishda ko'payib, 74 232 mlrd so'mdan 152 348 mlrd so'mga yetgan. Bu esa ijtimoiy sohaning davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulush ta'lim sohasiga to'g'ri kelib, 2020-yildagi 29 961 mlrd so'mdan 2024-yilda 71 743 mlrd so'mga oshgan. Xususan, umumiy ta'lim xarajatlari keskin o'sib, ushbu yo'nalish ijtimoiy siyosatda yetakchi o'rinni egallagan. Maktabgacha ta'lim va kadrlar tayyorlash xarajatlarida ham izchil o'sish kuzatiladi. Umuman olganda, mazkur davrda ijtimoiy sohani moliyalashtirish hajmining ortishi davlat tomonidan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat izchil kuchayib borayotganidan dalolat beradi (2-jadval).



## 2-jadval Respublika umumta'lim maktablari quvvati va o'quvchilar soni (ming hisobida)

№	Hududlar nomi	Jami	Shundan						
			Quvvat (ming)			Sport zallari		Faollar zali	
						Mavjud	Mavjud emas	Mavjud	Mavjud emas
	Respublika bo'yicha	10 146	5 512	6 537	<b>1,2</b>	<b>8 078</b>	<b>2 068</b>	<b>5 075</b>	<b>5 071</b>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	728	334	364	1,1	576	152	381	347
2	Andijon viloyati	761	464	610	1,3	651	110	456	305
3	Buxoro viloyati	533	328	328	1,0	483	50	325	208
4	Jizzax viloyati	560	245	271	1,1	415	145	229	331
5	Qashqadaryo viloyati	1 232	548	670	1,2	874	358	452	780
6	Navoiy viloyati	368	176	190	1,1	273	95	180	188
7	Namangan viloyati	716	433	548	1,3	602	114	349	367
8	Samarqand viloyati	1 268	625	778	1,2	890	378	463	805
9	Surxondaryo viloyati	967	465	551	1,2	666	301	333	634
10	Sirdaryo viloyati	312	148	157	1,1	284	28	207	105
11	Toshkent viloyati	877	481	525	1,1	703	174	510	367
12	Farg'ona viloyati	955	593	688	1,2	833	122	519	436
13	Xorazm viloyati	542	322	364	1,1	504	38	358	184
14	Toshkent shahar	327	351	494	1,4	324	3	313	14

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha umumta'lim maktablari soni 10 146 tani tashkil etib, ularning umumiy quvvati 5 512 ming o'rinni, o'quvchilar soni esa 6 537 ming nafardan ortiqni tashkil etmoqda. O'rtacha yuklama koeffitsiyenti 1,2 ga teng bo'lib, bu maktablarda o'quvchilar soni mavjud quvvatdan ortiq ekanligini, ya'ni tizimda ortiqcha yuklama mavjudligini ko'rsatadi. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori yuklama Toshkent shahrida kuzatilib, koeffitsiyent 1,4 ni tashkil etadi. Shuningdek, Andijon va Namangan viloyatlarida ham ushbu ko'rsatkich 1,3 darajada bo'lib, o'quvchi o'rinlari yetishmovchiligi mavjudligini anglatadi. Aksincha, Buxoro viloyatida koeffitsiyent 1,0 ga teng bo'lib, mavjud quvvat o'quvchilar soniga mos keladi.

Maktab infratuzilmasi bo'yicha ham muhim tafovutlar mavjud. Respublika bo'yicha 8 078 ta maktabda sport zallari mavjud bo'lsa, 2 068 tasida ushbu infratuzilma mavjud emas. Xuddi shuningdek, faollar zali bilan ta'minlangan maktablar soni deyarli teng ulushni tashkil etib, 5 075 ta maktabda mavjud bo'lsa, 5 071 tasida mavjud emas. Bu esa o'quvchilarning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Mazkur ma'lumotlar hududlar kesimida maktab quvvatidan foydalanish va infratuzilma ta'minoti o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim tizimini rejalashtirishda hududiy ehtiyojlar asosida yangi maktablar qurish, mavjudlarini kengaytirish hamda infratuzilmani yaxshilash zaruratini yuzaga keltiradi (3-jadval).

**3-jadval**

**Ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy soliq stavkasining 1 % miqdorida qo'llanilishi to'g'risida ma'lumot**

Hududlar nomi	Jami Ish haqi	Jami YAIT	2021-yil			2022-yil			2023-yil			Bo'sh qolgan mablag'
			Ish haqi	YAIT	%	Ish haqi	YAIT	%	Ish haqi	YAIT		
Respublika bo'yicha	435 208	35 759	69 649	14 838	23	146 528	18 209	12	219 031	2 712	1	52 046
	<b>15 937</b>	<b>930</b>	1 528	360	24	4 097	479	12	10 312	92	1	2 486
Andijon viloyati	<b>10 619</b>	<b>563</b>	995	168	17	2 007	154	8	7 617	241	3	1 663
Buxoro viloyati	<b>17 733</b>	<b>1 252</b>	2 694	652	24	3 484	487	14	11 555	113	1	2 776
Jizzax viloyati	12 646	<b>619</b>	1 284	310	24	2 553	232	9	8 809	77	1	2 125
Qashqadaryo viloyati	<b>7 824</b>	<b>614</b>	1 294	321	25	1 116	231	21	5 415	61	1	1 293
Navoiy viloyati	<b>17 593</b>	<b>1 202</b>	2 450	574	23	4 763	519	11	10 381	109	1	2 486
Namangan viloyati	14 681	936	1 754	394	22	2 823	431	15	10 103	111	1	2 415
Samarqand viloyati	<b>11 423</b>	<b>770</b>	1 330	319	24	2 824	356	13	7 269	95	1	1 723
Surxondaryo viloyati	<b>13 225</b>	<b>1 057</b>	2 026	487	24	4 009	508	13	7 190	61	1	1 737
Sirdaryo viloyati	<b>11 381</b>	<b>647</b>	691	161	23	2 540	215	8	8 151	271	3	1 767
Toshkent viloyati	<b>17 169</b>	<b>630</b>	801	179	22	3 314	218	7	13 054	233	2	3 031
Farg'ona viloyati	<b>18 048</b>	<b>1 021</b>	1 227	300	24	3 414	573	17	13 407	148	1	3 204
Xorazm viloyati	<b>16 680</b>	<b>634</b>	876	216	25	2 703	295	11	13 101	123	1	3 152
Toshkent shahar	<b>250 248</b>	<b>24 886</b>	50 699	10 397	21	106 881	13 511	13	92 668	978	1	22 189

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy soliq stavkasining bosqichma-bosqich kamaytirilishi (2021-yilda o'rtacha 20–25 % dan 2023-yilda 1 % gacha) moliyaviy yukni sezilarli darajada qisqartirgan. Respublika bo'yicha ish haqi fondi 435 208 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, yagona ijtimoiy to'lov (YAIT) summasi 35 759 mlrd so'mni tashkil etgan. 2021-yilda YAIT stavkasi yuqori (o'rtacha 23 %) bo'lgani sababli ajratmalar hajmi katta bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 12 % gacha pasaygan, 2023-yilda esa 1 % etib belgilanishi natijasida YAIT summasi keskin kamaygan. Natijada respublika bo'yicha 52 046 mlrd so'm mablag' iqtisod qilinib, ta'lim muassasalari ixtiyorida qolgan.

Hududlar kesimida eng katta iqtisod qilingan mablag' Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 22 189 mlrd so'mni tashkil etadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati (3 204 mlrd so'm), Xorazm viloyati (3 152 mlrd so'm) va Toshkent viloyatida (3 031 mlrd so'm) ham sezilarli moliyaviy resurslar tejab qilingan. Mazkur natijalar ijtimoiy soliq stavkasining pasaytirilishi ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, budjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanish hamda qo'shimcha resurslarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini



tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish mavjud imkoniyatlarni kengaytirib, ularning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### “Barkamol avlod” bolalar maktablarining rivojlantirish jamg'armasiga tijorat banklari va to'lov tashkilotlari orqali kelib tushadigan ota-onalar to'lovlari dinamikasi

Hudud nomi	2022-yil			2023-yil			2024-yil		
	Ota-onalar to'lovi	To'garak a'zolar soni	1 % yig'im	Ota-onalar to'lovi	To'garak a'zolar soni	Iqtisod qilingan mablag'	Ota-onalar to'lovi	To'garak a'zolar soni	Iqtisod qilingan mablag'
Respublika bo'yicha	34 277	260 863	343	47 243	306 164	315	106 383	327 726	1 064
	1 564	16 548	16	1 778	19 473	12	3 848	21 411	38
Andijon viloyati	2 924	19 874	29	3 576	23 546	24	5 860	25 698	59
Buxoro viloyati	3 719	22 354	37	4 754	26 874	32	9 737	28 941	97
Jizzax viloyati	1 209	17 456	12	1 470	20 547	10	2 855	22 365	29
	2 152	23 846	22	4 703	28 946	31	9 394	30 145	94
Navoiy viloyati	1 176	11 456	12	1 028	14 458	7	2 095	16 784	21
Namangan viloyati	3 839	18 450	38	4 081	21 987	27	9 201	24 463	92
Samarqand viloyati	3 045	33 254	30	4 644	37 451	31	9 031	39 125	90
	2 383	21 450	24	2 710	25 648	18	7 793	27 845	78
Sirdaryo viloyati	746	9 845	7	1 076	12 547	7	1 656	12 547	17
Toshkent viloyati	2 433	19 874	24	3 700	22 364	25	7 833	23 654	78
Farg'ona viloyati	5 534	21 456	55	8 058	23 654	54	16 385	24 456	164
Xorazm viloyati	660	8 452	7	1 031	9 875	7	2 217	10 245	22
Toshkent shahar	2 893	16 548	29	4 635	18 794	31	18 480	20 047	185

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, “Barkamol avlod” bolalar maktablarining rivojlantirish jamg'armasiga tushadigan ota-onalar to'lovlari 2022–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Respublika bo'yicha ushbu ko'rsatkich 34 277 mlrd so'mdan 106 383 mlrd so'mgacha oshgan bo'lib, bu to'garaklarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, to'garak a'zolari soni ham 260 ming nafardan 327 ming nafarga yetgan. 2023-yildan boshlab to'lovlardan olinadigan vositachilik yig'imlarining qisqarishi natijasida sezilarli mablag'lar iqtisod qilinmoqda. Jumladan, respublika bo'yicha 2024-yilda 1 064 mlrd so'm mablag' tejab qilingan. Bu esa to'lov tizimini optimallashtirish va ortiqcha tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali ta'lim muassasalari ixtiyorida qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllanishiga xizmat qilgan.

Hududlar kesimida eng yuqori tushum va iqtisod qilingan mablag' Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi (2024-yilda 18 480 mlrd so'm tushum va 185 mlrd so'm iqtisod). Shuningdek, Farg'ona viloyati (16 385 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (9 737 mlrd so'm) ham yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan. Umuman olganda, ushbu natijalar maktabdan tashqari ta'lim xizmatlariga talab izchil ortib borayotganini, shuningdek, to'lov tizimidagi islohotlar natijasida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa rivojlantirish jamg'armalarini mustahkamlash va ta'lim sifatini yanada oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi (5-jadval).



## 5-jadval

**“Barkamol avlod” bolalar maktablari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish xarajatlarining umumiy xarajatlarga nisbatan ulushi to‘g‘risida ma‘lumot**

Hudud nomi	2021-yil				2022-yil				2023-yil			
	Ish haqi fondi				Ish haqi fondi				Ish haqi fondi			
Respublika bo'yicha	6 597 700	8 444	781	3	12 424 500	9 937	1 250	4	13 504 100	11 429	1 182	4
	116 400	691	168	1	271 500	782	347	1	520 600	872	597	2
Andijon viloyati	1 042 600	519	2 009	8	1 088 800	587	1 855	7	1 207 100	655	1 843	6
Buxoro viloyati	683 800	730	937	4	1 210 100	821	1 474	5	1 596 600	912	1 751	6
Jizzax viloyati	176 500	530	333	1	257 500	561	459	2	181 800	591	308	1
	170 500	675	253	1	372 400	877	425	2	724 700	1 078	672	2
Navoiy viloyati	352 300	355	992	4	438 300	391	1 121	4	280 200	427	656	2
Namangan viloyati	1 403 100	620	2 263	9	2 360 100	745	3 170	12	2 374 700	869	2 733	9
Samarqand viloyati	292 100	929	314	1	661 600	1 234	536	2	1 014 800	1 538	660	2
	138 200	758	182	1	538 200	873	616	2	544 700	988	551	2
Sirdaryo viloyati	39 700	289	137	1	186 100	325	573	2	189 700	360	527	2
Toshkent viloyati	116 200	641	181	1	469 500	823	571	2	539 600	1 004	537	2
Farg'ona viloyati	1 745 500	890	1 961	8	3 386 900	958	3 537	13	3 728 500	1 025	3 638	12
Xorazm viloyati	22 000	286	77	0	48 200	442	109	0	108 900	597	182	1
Toshkent shahar	298 800	531	563	2	1 135 300	522	2 175	8	492 200	513	959	3

5-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, “Barkamol avlod” bolalar maktablari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan ish haqi fondi 2021–2023-yillar davomida sezilarli o‘shish tendensiyasiga ega. Respublika bo‘yicha ish haqi fondi 6,6 trln so‘mdan 13,5 trln so‘mgacha oshgan bo‘lib, bu pedagog kadrlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e‘tibor izchil kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Pedagog xodimlar soni ham mos ravishda 8 444 nafardan 11 429 nafarga yetgan, bu esa maktabdan tashqari ta‘lim tizimining kengayib borayotganidan dalolat beradi. O‘rtacha ish haqi xarajatlari ham oshgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda ma‘lum tebranishlar kuzatiladi, bu esa rag‘batlantirish tizimida hududiy tafovutlar mavjudligini bildiradi.

Hududlar kesimida nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona va Namangan viloyatlarida kuzatilib, ushbu hududlarda pedagoglar soni hamda ish haqi fondi yuqori darajada shakllangan. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ko‘rsatkichlar nisbatan past darajada saqlanib qolgan. Umuman olganda, tahlil natijalari moddiy rag‘batlantirish tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini, shu bilan birga hududlar kesimida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa pedagog kadrlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda moliyaviy resurslarni muvozanatli taqsimlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini anglatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida davlatning ijtimoiy soha muassasalari, xususan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi ta'lim muassasalarida mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, budget mablag'lari samaradorligini oshirish hamda budgetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirish imkoniyatlarini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari maktablarda bo'sh turgan bino va inshootlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Demografik prognozlarni inobatga olgan holda ularni maqsadli foydalanishga jalb etish ta'lim infratuzilmasidan uzoq muddatli va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarga yuqori soliq yukining mavjudligi aniqlanib, uni 1 % etib belgilash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Bu esa ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida vositachilik xarajatlarining yuqoriligi budgetdan tashqari mablag'lar hajmini qisqartirishi aniqlangan. Ushbu xarajatlarni 1 % gacha kamaytirish xizmatlardan olinadigan daromadlarni oshirib, qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllanishiga imkon yaratadi.

"Barkamol avlod" bolalar maktablarida rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarurligi asoslandi. Budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan bir martalik rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish mehnat motivatsiyasini oshirib, ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vahobov A., Malikov T. *Moliya*. Darslik. – T.: "Sharq", 2010. – 804 b.
2. Malikov T., Jalilov P. *Byudjet-soliq siyosati*. – T.: "Akademnashr", 2011. – 472 b.
3. Sobirov H. *O'zbekistonning davlat moliyasi tarixi*. – T.: "Ta'lim manbai" jamiyati, 2002. – 152 b.
4. Toshmatov Sh., Rajabbayev Sh., Islamkulov A. *Upravleniye gosudarstvennym vneshnim dolgom*. Monografiya. – T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2015. – 144 b.
5. Toshmatov Sh., Rajabbayev Sh., Islamkulov A. *Moliyalashtirishning innovatsion usullari*. Monografiya. – T.: "Moliya" nashriyoti, 2015. – 160 b.
6. Islamkulov A.X. *Byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish*. Monografiya. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2017. – 160 b.
7. Islamkulov A. *Turli darajadagi byudjet daromadlari*. Monografiya. – T.: "ILM-ZIYO" nashriyoti, 2017. – 104 b.
8. Islamkulov A. va b. *Davlat byudjeti daromadlarini prognozlashtirish*. Monografiya. – T.: "Spectrum Media Group" nashriyoti, 2015. – 160 b.
9. Bryummerxoff D. *Teoriya gosudarstvennyx finansov*: per. 7-nemis nashridan / D. Bryummerxoff; A. L. Kudrin. – Vladikavkaz: "Pioner-PRESS", 2002. – 480 s.
10. Van Xorn D. *Osnovy upravleniya finansami* / D. Van Xorn; ingliz tilidan tarjima; bosh muharrir Ya. Sokolov. – M.: "Finansy i statistika", 1996. – 800 b.
11. Laptev S. *Osnovy teorii gosudarstvennyx finansov*: o'quv qo'llanma / S. Laptev. – 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – M.: "YUNITI-DANA", 2010. – 240 b.
12. Dornbusch R., Fischer S. *Macroeconomics*. International edition. – New York: McGraw-Hill, 1994. – 635 p.

### Elektron ta'lim resurslari:

13. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
14. <http://www.my.gov.uz> – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
15. <http://www.egov.uz> – "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi.
16. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti.
17. <http://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
18. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)